

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

SHAYZAKOV G‘ULOM MUXTAROVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “ZAMON” FUNKSIONAL-SEMANTIK
MAYDONI CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Filological sciences**

Shayzakov G‘ulom Muxtarovich

Ingliz va o‘zbek tillarida “zamon” funksional-semantik maydoni chog‘ishtirma tadqiqi 3

Шайзаков Гулом Мухтарович

Сравнительное исследование функционально-семантического поля «время» в английском и узбекском языках 25

Shayzakov Gulom Mukhtarovich

Comparative investigation of the functional-semantic field “tense” in English and Uzbek languages..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

SHAYZAKOV G‘ULOM MUXTAROVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “ZAMON” FUNKSIONAL-SEMANTIK
MAYDONI CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil3919 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.adchti.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Fazliddin Galiyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduvaliyev Maxammadjon Arabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abdullayev Bekzodbek Xoldaraliyevich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100 Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: (74)223-42-76; faks: (74)223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100 Andijon shahar, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: (74) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.J.Atboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

M.I.Umarxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi zamonamizning barcha ilm-fan, texnika sohalari kabi o'ziga xos bo'lgan yangi yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa jahondagi keng qamrovli globallashuv jarayonining jadal rivoji xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Shu sababli tilshunoslikning ilmiy-nazariy sohalari qatorida amaliy yo'nalishlarda yangicha tadqiqotlar olib borishligi talab etilmoqda.

Dunyo tilshunosligida turli oilalariga mansub bo'lgan tillarning chog'ishtirma tadqiqi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Negaki, tilni amaliy jihatdan tadqiqi masalasi bugungi tilshunoslik, xususan, nutqshunoslik uchun ahamiyati ortib bormoqda. Til yaxlit sistema sifatida o'rganilganda undagi vositalarning morfologik maqomi va gapdagi sintaktik vazifasi asosiy ko'rsatkich hisoblanmaydi. Til birliklarining semantik tarkibi ularning ushbu tizimdagi o'rni va vazifasini belgilab beradi. Shu sababdan tilidagi zamon kategoriyasining semantik, pragmatik va kontekstual xususiyatlarini tahlil qilish dolzarblashmoqda.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda o'zbek milliy modeliga mos keluvchi ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirishning zamonaviy talablar darajasidagi asosiy tamoyillari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Chet tillarni o'rganishga e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidan biriga aylandi. "Mamlakatimiz taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalar"¹ ekanligi tilda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o'zbek tilining mavqeyini jahonning eng rivojlangan tillari darajasiga ko'tarish, o'zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima matnlarining sifat darajasini oshirish uchun zamon ma'nosining ingliz va o'zbek tillaridagi chog'ishtirma tadqiqi, ushbu maydon vositalarining funksional va semantik, pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning tarjimasidagi kamchiriliklarni bartaraf etish kabi o'zbek hamda ingliz tillarida "zamon" funksional-semantik maydon elementlarining allamorf hamda izomorf xususiyatlarini chog'ishtirma tadqiqi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998> (Murojaat qilingan sana: 02.10.2022.)

hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi boshqa fe'l kategoriyalari yoki, umuman, morfologik sath doirasida o'rganilgan.² Qolaversa, alohida ajratilgan holda ham zamon kategoriyasining funksional va sintagmatik xususiyatlari qisman belgilab berilgan.³ Biroq masalaning pragmatik, semantik jihatlarini aniqlash, tavsiflash o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Dunyo tilshunosligida zamon tilning struktur xususiyatiga ko'ra zamon kategoriyasi sintetik yoki analitik shaklda ifodalanishi aniqlangan.⁴ Ingliz tilshunosligida zamon kategoriyasi aspektuallik va temporallik paradigmalari bilan yondosh tadqiq etilgan. Morfologiyaga bag'ishlangan ishlarda shu yondashuv asosidagi xulosalarni kuzatamiz.⁵

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ingliz va o'zbek tillarida "zamon" funksional-semantik maydonini chog'ishtirma tadqiqi" mavzusi doirasida bajarilgan. Tadqiqot turli tizimli tillar tipologiyasi umumiy muammosi bilan bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi zamon ingliz va o'zbek tilidagi "zamon" tushunchasini ifodalovchi fe'llarining tipologik xususiyatlari, doimiy qo'llanish me'yorini ko'rsatuvchi semantik va kontekstual tavsifini berish, tarjima muammolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va ingliz tilidagi zamon funksional-semantik maydon tizimi va tarkibini aniqlash, birliklarning ma'no ko'lamini va o'zaro semantik tizimiy munosabatlarini ochish;

² Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол.фан.номз.дисс...автореф. – Тошкент, 2002; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол.фан.докт.дисс...автореф. –Тошкент, 1994; Неъматов Ҳ. Феъл, унинг форма ва категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. 1-сон, – Б. 39-47. 2-сон, – Б. 42–50. Баҳридинова Б. Феъл луғавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Самарқанд, 2002; Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. – Андижон, 1994; Курбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Тошкент, 2004; Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994.

³Жуманиёзов Р. Ўзбек тилида феъл замонлари // Совет мактаби, 1953 йил, 3-сон; Жўраева Ж. Келаси замон маъносининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1959 йил, 3-сон; Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категорияси мисолида): филол.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2007.

⁴Бондарко А. Классификация грамматических категорий // Типология грамматических категорий. – Москва, 1975; Дешериев Т. Лингвистический аспект категории времени в его отношении к физическому и философскому аспектам // ВЯ. 1975. № 2.

⁵Смирницкий А. Морфология английского языка. – Москва, Изд. лит. по иностр. яз., 1959; Kortmann В., 2005. English linguistics essentials. – Berlin. Cornelsen; Abusch D. Sequence of Tenses, Intensionality and Scope WCCFL 7. Stanford University, 1988.

o'zbek va ingliz tilidagi zamon funksional-semantik maydoni elementlarini ma'no dominantasiga ko'ra tasniflash;

o'zbek va ingliz tillarida zamon ma'nosini ifodalovchi vositalarning lisoniy-pragmatik xususiyatlarini aniqlash;

zamon funksional-semantik maydoni tarkibidagi elementlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarini tahlil qilish, hamda takomillashtirish uchun tegishli tavsiyalarni berish;

tarkibida zamon semasi mavjud bo'lgan leksemalarning tarjima lug'atlaridagi talqinini o'rganib, yutuq va kamchiliklarni aniqlab takomillashtirish uchun tegishli tavsiyalarni berish;

Tadqiqotning obyektini hozirgi ingliz va o'zbek tilidagi zamon funksional-semantik maydon elementlari tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini zamonaviy ingliz va o'zbek tilidagi nutq fe'llarining semantik va tipologik-struktur maqomi hamda o'zaro tarjimada berish muammolari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda bayon, statistik, distributiv, semantik-stilistik izoh, leksik-semantik (mantiqiy-semantik), chog'ishtirma usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tili va o'zbek tillarida zamon-aspekt ma'nolarining lisoniy-pragmatik ifodalanishi, asosan, fe'l, ravish, murakkab (iborali) hol konstruksiyasi, buyruq-istak mayli, shart mayliga asoslangan sintaktik qurilma (shart ergash gap) kabi leksik va sintaktik qoliplarda kuzatilishi ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillarining har ikkisida ham davomiylik, davomiy tugallanganlik, davomiy bo'lmagan tugallanganlik zamon va kichik tarz ma'nolari orasidagi o'rtaliq bo'g'im mavjud bo'lishi, sof zamon shakllaridagi kontekstual polisemiya, ya'ni qo'shimcha pragmatik ma'nolar asosan ingliz tilida kuzatilsa, o'zbek tilida esa zamon shakllarining tarkibiy qamrovi kengroq, lekin ma'no ko'lami tor doirada cheklanishi asoslab berilgan;

ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyasining tarjimasi grammatik transformatsiyalar hisobidan bo'lib, asliyat matnidagi davomiy zamonda qo'llanilgan hissiy holat va aqliy faoliyat fe'llari ingliz tilida oddiy zamon shakllarida tarjima qilish, tarz ma'nosi yaqqol bo'lmagan fe'llarga ravishlarni birlashtirish, zamon shaklini modal konstruksiyalar yoki zamon siljishi bilan o'girish muvaffaqiyatli tarjimaga munosib hissa qo'shishi dalillangan;

zamon, asrekt ma'nolarining nutqiy kontekstga bog'liq holda ifodalanishi maydonning markaziy va uzoq-yaqin periferik qismlarida kuzatilib, ma'nolar mutlaq emas, nutqiy vaziyat, sintaktik birikuv va boshqa nutq elementlari bilan o'zaro semantik aloqaga kirishishi asosida lisoniy-pragmatik xarakter kasb etishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:

o'zbek va ingliz tilidagi zamon funksional-semantik maydon tizimini o'zbek tilshunosligi hamda ingliz tilshunosligidagi fanlardan, ya'ni tili tarixi, dialektologiya, leksikologiya, hozirgi adabiy tili, lingvopoetikasi, etnolingvistikasi kabi tilshunoslik sathlaridan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashtirishiga xizmat qilishi asoslangan;

o‘zbek va ingliz tilidagi zamon funksional-semantik maydon tiziminining tarkibiy tahlili amalga oshirilgan hamda ularning tasnif omillari yoritilgan;

tadqiqot o‘zbek va ingliz tilidagi zamon funksional-semantik maydon tizimi muammolarni yoritishda, o‘zbek va ingliz tillardagi leksikani shakllanish va rivojlanish jarayonini o‘rganishda eng ishonchli manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar o‘zbek va ingliz tillarning etimologik lug‘atini mukammallashtirishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi asoslangan.

o‘quv qo‘llanmada talabalarda mutaxassislik yo‘nalishiga mos til (fonetika, grammatika, leksika) va nutq (tinglash, o‘qish, yozish, gapirish) kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar va topshiriqlar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek va ingliz tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda zamon paradigmasi elementlarining semantik-struktur-tipologik tahlil qilishning kompleks metodikasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi; tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tilidagi olamning milliy lisoniy tasviri elementlarini lingvotipologik jihatdan o‘rganish bo‘yicha izlanish olib boruvchilar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan materiallar ingliz va o‘zbek tilidagi zamon paradigmasi elementlarining nutqdagi integratsiyasi, sintaktik vazifasi va semantik imkoniyatlarini aniqlashga yo‘l ochadi. Amaliy jihatida esa tadqiqot natijalaridan o‘zbek va ingliz tili leksikasi, qiyosiy tipologiya, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha nazariy hamda amaliy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish tiziminin ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida “zamon” funksional-semantik maydoni chog‘ishtirma tadqiqi mavzusi doirasida amalga oshirilgan ishlar asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida fe‘lning oddiy hozirgi va oddiy o‘tgan zamon shakllari alohida analitik, sintetik-analitik shakl sifatida mavjud bo‘lishi, kelasi zamon shakli esa bu qolip doirasidan chetga chiqib, ingliz tilida modal fe‘l va infinitiv birikmasi vositasida, o‘zbek tilida esa oddiy hozirgi zamondagi funksional ma‘no qavatlanishi orqali belgilanishi misollar asosida dalillanganligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” («Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке») nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 18-iyuldagi 387/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari ingliz va o‘zbek tillaridagi nutq fe‘llari tarjimasida adekvatlik, nisbiy adekvatlik va adekvat emaslik holatlarini belgilovchi lisoniy kategoriyalarga oid nazariy fikrlar bilan boyigan;

zamon, aspekt ma'nolarining nutqiy kontekstga bog'liq holda ifodalanishi maydonning markaziy va uzoq-yaqin periferik qismlarida kuzatilib, ma'nolar mutlaq emas, nutqiy vaziyat, sintaktik birikuv va boshqa nutq elementlari bilan o'zaro semantik aloqaga kirishishi asosida lisoniy-pragmatik xarakter kasb etishiga oid nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 14-oktabrdagi 04/1-2846-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha turli tizimli tillarda zamon ma'nosining lisoniy-pragmatik ifodalanishiga oid faktik materiallar va nazariy xulosalar bilan boyishiga erishilgan;

ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyasining tarjimai grammatik transformatsiyalar hisobidan amalga oshirishini inobatga olgan holda asliyat matnidagi davomiy zamonda qo'llanilgan hissiy holat va aqliy faoliyat fe'llari ingliz tilida oddiy zamon shakllarida tarjima qilish, tarz ma'nosi yaqqol bo'lmagan fe'llarga ravishlarni birlashtirish, zamon shaklini modal konstruksiyalar yoki zamon siljishi bilan o'girish muvaffaqiyatli tarjimaga munosib hissa qo'shishi asosida chiqarilgan ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-aprelda e'fira uzatilgan "Diyor yangiliklari" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-apreldagi 9-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallar ilmiy faktik jihatlari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan, 2 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e'lon qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida zamon funksional-semantik maydonining umumiy xususiyatlari**" deb nom olgan bo'lib, u uch

fasldan iborat. Birinchi fasli “**Olamning lisoniy tasvirida zamon kategoriyasining o‘rni**” deb nomlanadi.

Olimlar bir til tizimini tasniflashda boshqa til tizimiga asoslanib harakatlangan an’anaviy grammatikada ingliz tilidagi “*tense*” istilohi ham fransuz tilidagi muqobilidan kelib chiqqan deb aytiladi. Lotin va yunon tillarida fe’l zamonlari sifatida quyidagilar ajratish mumkin: *praesēns, praeteritum imperfectum, praesēns perfectum, futūrum, plūs quam perfectum, praeteritum perfectum* hamda *futūrum perfectum*.⁶ G‘arbiy Yevropa lingvistik maktabi tarkibida bo‘lgan ingliz tilshunosligida ham zamon turlari ham ayni shu istilohlar bilan nomlanadi. Ya’ni *present, imperfect, future, pluperfect, future perfect* ushbu atamalarning inglizcha muqobillari deyish mumkin. Dastlabki tadqiqotlar ingliz tilining aslida to‘liq barcha zamonlarga ega emasligini dalillaydi. An’anaviy ingliz tilshunosligi fe’l zamonlari *present (non-past)* va *past* turlariga ya’ni hozirgi hamda o‘tgan zamonga ajratadi. Ingliz tilidagi kelasi zamon shakli an’anaviy tilshunoslikda zamon deb emas, modal qurilma sifatida ko‘zdan kechiriladi. Olimlar dastlab zamon shakllarini ushbu ikki turga ajratib, ularning ifodachilari fe’l tarkibidagi suffikslar yoki fonetik o‘zgarish (ablaut) ekanligini belgiladilar. Suffikslar o‘tgan va hozirgi zamoni yasashga xizmat qilgani holda ablaut faqat o‘tgan zamon shaklini hosil qiladi.⁷ Keyinchalik, tilni struktur-sistem o‘rganish tarafdorlari tomonidan barcha lisoniy kategoriyalar singari zamon ham qayta ko‘zdan kechirildi. Aytish joizki, struktur tilshunoslikning ingliz zamon kategoriyasi haqidagi xulosasi an’anaviy lingvistikadagi qarashlarni inkor etmaydi, bilaks, to‘ldiradi. Bundan tashqari, harakat yoki holatning boshlanish hamda tugallanish bosqichi, davomiy sur‘atini ifodalovchi morfologik sath vositalari modal fe’llar, predloglar ekanligi belgilandi.⁸ Ushbu ikki zamon shakli suffiks va ablaut vositasida yasaladi. Mohiyatan noaniq hozirgi zamon aniq vaqt chegarasiga ega emasligi, o‘tgan noaniq zamon esa harakat yoki holatning bir marotaba yuz berib, boshqa takrorlanmasligini anglatadi. Davomiy va tugallangan zamon shakllari esa aksincha aniq vaqt chegarasiga egaligi, harakatning takrorlanish ehtimoli mavjudligi bilan farqlanadi.

O‘zbek tilining qurilishi hamda nutqiy me’yorlarni belgilash dastlab ta’limiy xarakter kasb etgan va Behbudiy, Fitrat, Avloniy va Munavvar Qori kabi jadidlar tomonidan ilgari surilgan. Ularning qarashlari alifbo, orfografiya kabi masalalarga qaratilgan.⁹ Tilshunoslikning boshqa ilmiy-nazariy masalalari keyingi bosqichda ko‘rib chiqildi. Xususan, fe’l va uning kategoriyalari tadqiqi dastlab A.G‘ulomov tomonidan o‘rganildi. Zamon, shaxs-son kabi kategoriyalar xususiyatlari aniqlandi. So‘ng bularga qo‘shimcha sifatida A.Hojiyev ko‘makchi fe’l va uning semantik, funksional imkoniyatlarini o‘rgandi.¹⁰

O‘zbek struktur-substansial tilshunosligi tadqiq obyektlaridan yana biri bevosita zamon paradigmasiga bog‘lanadi. Dastlab fe’l+ravishdosh

⁶ Dahl O. *Tense and Aspect Systems*. – New York, 1985. – P. 207.

⁷ *Tense*. – Cambridge, Cambridge University Press, 1985.

⁸ Galton A. *The Logic of Aspect*. Clarendon Press. – Oxford, 1984.

⁹ Фитрат. 1921 йил тил ва имло қурултойида сўзлаган нутқ. 1921 йил тил ва имло қурултойининг чиқарган қарорлари. – Тошкент, 1922. – Б. 35-40.

¹⁰ Ғуломов А. Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. *Ўзбек тилининг морфем луғати*. – Тошкент, 1977. – Б. 463. Ғуломов А. Фейл. – Тошкент, 1954. – Б. 88. Ҳожиев А. *Ўзбек тилида қўмакчи феъллар*. Тошкент; Ўзбекистон ССР Фан, 1966. – Б. 259.

qo‘shimchasi+ko‘makchi fe‘l qurilmasi ma‘no ko‘lami, ifoda imkoniyatlari an‘anaviy tilshunoslikda ko‘makchi fe‘l doirasida o‘rganildi. So‘ng o‘zbek substansial tishunosligida bu konstruksiyaning semantik xususiyatlari aniqlanib tarz kategoriyasi deb ataldi. Tadqiqotlarda tarz kategoriyasi elementlari boshlanish, davomiylik, tugallanish, uzluksizlik va noto‘liqlik kabi mikrosemalarni ifodalay olishi asoslandi. So‘ng tarz kategoriya emas turli til sathlarida o‘z birliklariga ega paradigma ekanligi isbotlandi. Ma‘no ko‘lami va ifoda imkoniyatlariga ko‘ra o‘zbek tilidagi tarz ingliz tilining aspektuallik maydoni muqobili bo‘lishi dalillandi. Sanab o‘tilgan xulosalar qiyosi shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tilidagi zamon kategoriyasi temporallik funksional-semantik maydoni tarkibidagi markaziy qism, tarz (aspektuallik) esa zamon ma‘nolarini ifodalashda ko‘makchi vosita deb baholanishi mumkin. Albatta, ingliz va o‘zbek tillarining struktur-tarkibiy tafovutlari sabab ikki tildagi temporallik paradigmasi, zamon kategoriyalari farqli xususiyatlarni namoyon etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi fasli **“Ingliz tilida zamon funksional-semantik maydoni tarkibi”** deb nomlanadi.

Struktur-semantik tilshunoslik maktabi lisoniy va nutqiy hodisalarni an‘anaviy grammatik lingvistikadan farqli tahlil qilishi ma‘lum. An‘anaviy lingvistikada har bir lisoniy birlik, turkum, leksik guruh alohida o‘rganilib, uning nutqda qo‘llanishiga doir tavsiyalar shakllantiriladi. Rivojlanishning keyingi pog‘onasida esa lisoniy tizim elementlari muayyan ma‘nosiga ko‘ra umumlashtiriladi. Ularning grammatik xususiyatlari, semantik ko‘lami, nutqiy voqelanishidagi o‘ziga xosliklar o‘rganiladi. Diqqat markazida bo‘lgan markaziy ma‘no ifodachilari bir sath bilan cheklanmaydi. Birliklar morfologik, leksik, sintaktik sathlarda uchrashi, nutqda turli sath vositalari birgalikda yoki alohida qo‘llanishi mumkin. Har bir lisoniy sathda o‘z ma‘no ifodachilariga ega bo‘lgan paradigmalarda talaygina. Jumladan, *deyxisis, daraja, hurmat va temporallik* funksional-semantik maydonlari ana shunday keng tarmoqli funksional-semantik paradigmalarga misol bo‘la oladi.¹¹ Ma‘lumki, funksional-semantik maydon bir yirik ma‘noni ifodalaydi, ushbu asos ma‘noni to‘laqonli qamrab olgan, shuningdek, nafaqat lug‘aviy semasiga ko‘ra, balki nutqda bajaradigan vazifasi bilan ham unga to‘liq mos tushishi lozim. Bunday elementlar maydonning yadrosini tashkil qiluvchi morfologik kategoriya bo‘la oladi. Yadrodan keyingi navbatda markaziy qism bo‘lib, unda asos ma‘noni qisman ifodalaydigan morfologik yoki sintaktik sath vositalari turadi. Leksik va fonetik sathga oid birliklar esa paradigmaning periferiyasidan o‘rin oladi. Demak, funksional-semantik maydon yadrosi bo‘lish uchun ajratilgan doiradagi elementlar ham vazifaviy, ham semantik dominantaga ega ekanligini namoyon qilishi kerak. Maydon periferiyasida joylashgan sathlar esa paradigmaning yadro ma‘nosidan funksional-semantik jihatdan uzoqda turadi. Nutqda bu vositalar yadroviiy ma‘noni ifodalovchi asosiy elementlarga yondosh, ko‘makchi, ularning ma‘nosini yaqqollashtiruvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.¹² Harakat va holatning kechish davri va tarzi ma‘nosini

¹¹ Функционально-семантические и словообразовательные поля в лингвистике. Ростов н/Д: Изд-во Рост. гос. пед. ун-та. 1998.

¹² Бондарко А. Теория функциональной грамматики. Темпоральность // Модальность. – Москва: Наука, 1990. – С. 39.

anglatuvchi turli vositalar umumlashib, temporallik maydonini hosil qiladi.¹³ Tilshunoslikdagi temporallik esa vaqt, harakat-holat hamda nutqdan tashkil topadi. Uning batafsil tahlili funksional-semantik paradigma istilohining tilshunoslikda keng ommalashuviga hissa qo‘shgan olimlardan biri A.Bondarko tomonidan amalga oshirilgan.¹⁴

I.Galperin esa temporallik maydonini ikki mazmuniy guruhga ajratadi. Uning mulohazalariga ko‘ra temporallik maydoni kelajakka yo‘naltirilgan yoki o‘tmish tomon harakatlanish mazmunidagi elementlardan tashkil topgan. Olimning fikricha, temporallik matn (nutqqa) xos kategoriya bo‘lib, o‘z tizimida kontinium, prospeksiya va retrospeksiya kabi elementlarni qamrab oladi. Keng miqyosdagi fikrlarga asoslanib, temporallik maydoni gipersemasi o‘z tarkibida tarixiy, tabiiy, fizik va boshqa tur zamonlar mazmunini ham tashiydi.¹⁵ Ma‘lumki, funksional-semantik maydon ma‘nosiga ko‘ra bir yadroga ega bo‘ladi, yadroda joylashgan gipersema quyi pog‘onalarda mikrosemalarga ajralib ketadi. Ma‘noviy yadro bo‘lgan gipersema ifodalashlari ham yadro, markaz va periferiyani hosil qiladi. Temporallik funksional-semantik maydoni yadrosidagi gipersema “harakat-holatning nutqqa nisbatan kechish zamon” bo‘lib, u barcha tillar uchun umumiydir.

Ta‘kidlash joizki, maydonning markazidagi morfologik konstruksiyalar faqat kelasi zamon shakli bilan cheklanmaydi. Turli vositalarning qavatlanishi natijasida davomiy va tugallangan ish-harakat yoki holatni ifodalash mumkin. Qolaversa, modal fe‘llar vositasida ham temporallikning o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon oraliq ma‘nolarini bilvosita ifodalashga xizmat qiladi.

Uchinchi fasli **“O‘zbek tilida zamon funksional-semantik maydon xususiyatlari”** deb nomlangan. Ingliz va o‘zbek tillarida temporallik funksional-semantik maydoni mavjudligi, ikki tildagi paradigmalar bir-biridan struktur jihatlariga ko‘ra farqlansa ham, mohiyatan bir xil gipersemaga ega ekanligi bu fikrni yaqqol dalillaydi. Faqat, o‘zbek tilidagi temporallik hodisasiga nisbatan tilshunoslik xulosalari turlicha. Xususan, tilshunos olim Sh.Iskandarova temporallikni paradigma emas, semantik kategoriya deb nomlaydi va quyidagicha izohlaydi¹⁶. Boshqa manbalarda temporallik funksional-semantik maydon ekanligiga ishora qilgan holda maydon yadrosini zamon kategoriyasi egallashi ta‘kidlanadi.¹⁷ Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar temporallik va aspektuallikni bir-biriga yondosh paradigma yoki kategoriyalar sifatida tahlil qiladi. Maydon elementlarini deytik birliklar sirasiga qo‘shib “voqea-hodisa, vaziyatlarning sodir etilayotgan vaqtiga aniqlik kirituvchi”¹⁸, deb ta‘riflaydi. Shuningdek, o‘tgan zamonda sodir bo‘lgan ish-harakat yoki yuzaga kelgan holat ma‘nosida uning tugallanish, to‘liqlilik, oniylik kabi ma‘nolari, hozirgi zamonda esa davomiylik, tugallanmaganlik mikrosemalari, kelasi zamon vositasida sinash, qodirlik, boshlanish kabi tarz ma‘nolari anglashilishi ma‘lum. Aspektuallik istilohi o‘zbek tilida tarz ma‘nosiga teng. Ingliz tilida

¹³ Кант И. Сочинения в шести томах. – Москва: «Мысль», 1964. № 3. – С. 404.

¹⁴ Бондарко А. Теория Функциональной грамматики: темпоральность. Модальность. – Ленинград, 1990. –С. 5.

¹⁵ Бондаренко Е. Словарь лингвистических терминов. – Белгород государственный университет, 2002. –С. 219.

¹⁶ Искадарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 121.

¹⁷ Боймирзаева С. Матн мазмунида темпораллик семантикаси. –Тошкент. ЎЗМЭ, 2009.

¹⁸ Мирсанов Ф. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг когнитив-прагматик асослари. Филол.фан.док.дисс ...автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 16.

morfologik, sintaktik va leksik birliklarning tarz ma'nolari, tarz ma'nosini voqelantirishda pragmatik vositalarning roli haqida qator tadqiqotlar olib borilgan.¹⁹

O'zbek tilida temporallik yadrosi zamon kategoriyasini qamrab oladi. Binobarin, grammatik zamon kategoriyasiga berilgan ta'riflar ham temporallik mazmuniga uyqashligi ma'lum. Xususan, formal tilshunoslikda "grammatik zamon harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi"²⁰, deb izohlanadi. Struktur tilshunoslik bu ta'rifni boyitib "payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash zamon kategoriyasiga xos xususiyatdir", deya ta'kidlaydi.²¹ Shu ikki izohni umumlashtirib, temporallik maydoni ta'rifini shakllantirish mumkin. Ya'ni temporallik harakat-holat sodir bo'lish oni va buning so'zlovchi nutqiy momentiga nisbatan munosabatidir. Bu izoh maydonning semantik yadrosidagi gipersemani aniqlashtiradi. Demak, temporallik maydonining funksional yadrosini ikki shakl tashkil etadi, hozirgi zamon shaklida vazifaviy polisemiya kuzatiladi:

O'tgan	<i>Kecha jurnalga mavzularni yozdim. Ota-onalar majlisi kechga yaqin tugadi. Mehmon keladi deb hovlini tozaladik.</i>
Hozirgi	<i>O'zbek mumtoz adabiyoti bilan tanishamiz. Korxonada mutasaddilari xisobotlarni ko'zdan kechiradi. Savdo markazi bayram tadbiri o'tkazadi.</i>
Kelasi	<i>Ertaga birinchi reys bilan Toshkentga uchamiz. Kelasi chorakda oziq-ovqat maxsulotlari narxini tushiradi. Nashriyot kuzda eng yirik tarjima lug'atini sotuvga chiqaradi.</i>

O'zbek tilida ham tugallangan va davomiy zamon shakllari mavjud. Ingliz tilidan farqli o'laroq o'zbek tilida hozirgi va o'tgan davomiy zamon shakli affiks vositasida yasaladi. Kelasi zamon davomiyligi esa fe'lga qo'shilgan (-ayot)gan, -kan, -qan affiksi va shaxs-son qo'shimchasini olgan bo'lmoq fe'li sintetik-analitik qo'shilmasidan yasaladi.

Tugallangan ish-harakat yoki holat o'zbek tilida uzoq o'tgan zamonda -gan +edi, yaqin o'tmishda -ib/-ab+bo'lning o'tgan zamon shakli, kelajakning ma'lum bir paytida tugallanishi ko'zda tutilgan ish-harakat -ib/-ab+bo'lning kelasi zamon shakli birikuvidan hosil bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida zamon funksional-semantik maydoni elementining lisoniy-pragmatik xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, uch fasldan iborat. Mazkur bobning birinchi fasli "**Turli tizimli tillarda zamon ma'nosining lisoniy-pragmatik ifodalanishi**" deb nomlanadi.

O'zbek tili nuqtai nazaridan kelib chiqib zamon yadroviy kategoriya sifatida uch ma'noni ifodalaydi deymiz. Biroq boshqa tizimli tillarda o'tmish, kelajak va

¹⁹ Маслов Ю.С. Очерки по аспектологии. – Ленинград, ЛГУ, 1984. – С. 263. Comrie B. Aspect. An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge, 1976. – P. 142.

²⁰ Хожиев А. Феъл // Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Фан, 1975, – Б. 475

²¹ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. –Тошкент, 2007. – Б. 208.

hozirgi zamon ma'nosining birortasi boshqa element vositasida belgilanishi mumkin. Bunday farqlar temporallik maydoni yadrosini turli tizimli tillar kesimida tahlil qilish, qiyoslash vositasida yuzaga chiqadi. Masalan, rus tilida hozirgi va kelasi zamon shakllari alohida belgi bilan ifodalanmaydi. Ish-harakat, holatning zamoni haqida fe'lining shaxs-son qo'shimchasi dalolat beradi. Ya'ni bunda bir kategoriya funksional polisemik element sifatida boshqa bir paradigma ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Rus tilida alohida zamon shakli deb kelasi zamonning murakkab shaklini aytish mumkin. «*Быть*» fe'lining shaxs-sonda tushlangan shakli va fe'ning infinitiv shakli yaxlit bir butun bo'lib mana shu zamon ma'nosini anglatadi. O'tgan zamon shakli esa fe'l asosiga *л*- suffiksini qo'shish orqali yasaladi. Biroq bu muntazam qoida emas, ya'ni tizimda bu suffiks o'rnini boshqa tovush egallashi mumkin va bunday istisnolar fe'l fonetik qolipidagi o'ziga xoslik sabab yuzaga keladi. Masalan, fe'l asosi [з], [с], [ч] bilan yakunlansa bu asosga shaxs-son qo'shimchasidan oldin *л*- suffiksi faqat birlikdagi jenskiy rod, yoki ko'plikdan keyin qo'shiladi.²² Bu istisno faqat bir guruh fe'llar bilan cheklanmaydi. Bundan kelib chiqib rus tilidagi asosiy zamon ma'nolari bir tizimda, bir qolipda barcha fe'llarni qamrab oladi, belgilangan zamon qo'shimchalari o'zgaras qoladi deb xulosa qilib bo'lmaydi. Rus tilidagi zamon tushunchasi ham o'tmish, hozir va kelajak chizig'ida progressiv joylashganidan dalolat beradi. Struktur jihatdan fleksiyaga asoslangan arab tilida ham, ingliz tilida ham zamon xuddi shunday ma'nolarga ajratilgan. Masalan, ko'plab tadqiqotlar, qiyosiy tahlillarda arab tilida zamon kategoriyasi boshqa tillardan tarkibiga ko'ra butunlay farq qiladi, bu unikal jihat faqat arab grammatikasiga xos degan xulosalar uchraydi. Ya'ni arab tilida faqat o'tgan va hozirgi zamon shakllari mavjud, kelasi zamon esa yo'q deyiladi. Shu xulosaga asoslanib darsliklar ham arab tilini ikki zamonli deb e'tirof etishadi.²³ Aslida bunday dualizm faqat arab tiliga xos emas. Masalan, oddiy zamonlar qatorida ingliz tili ham faqat *past* (o'tgan) va *present* (hozirgi) zamon shakliga ega. Ikki asosiy zamonni yasashda bitta umumiy yordamchi fe'l *to do* xizmat qiladi. *To do* zamon marker sifatida kelajakdagi ish-harakat, holatni ifodalaydigan gap tarkibida ishtirok etmaydi. Biroq bu ingliz tilida kelasi zamon umuman yo'q deyishga asos bo'lmaydi. Bir shaklining yo'qligi u ifodalashi ko'zda tutilgan ma'noning yo'qligini anglatmaydi. Masalan, ingliz tilida kelasi zamon oddiy shakli *will* modal fe'li va infinitiv fe'l birikuvida ifodalanadi. Shakl boshqa bo'lgani, qolgan ikki zamon strukturasiidan farq qilgani bilan kelasi zamon ma'nosi ingliz tilida ham, arab tilida ham mavjud.


Ikkinchi fasl **“Ingliz tilida zamon ma'nosining lisoniy-pragmatik xususiyatlari”** deb nom olgan.

Temporallik (zamon) funksional-semantik maydoni elementlari turli ma'nolar ostida tasniflanadi. Ma'no tabaqalanib, quyilashgani, toraygani sayin uning turlari ham ortib boradi. Funksional-semantik maydon ma'no turlari ochiq tizimga aylana boshlanadi. Kichik ma'nolar markaziy gipersemadan uzoqlashib ifodachilari

²² А.В. Бондарко. Теория значения в системе функциональной грамматики // На материале русского языка. – Москва, 2002. – С. 485.

²³ Marmorstein M. The Verb in Arabic Grammatical Tradition. Tense and Text in Classical Arabic: A Discourse-Oriented Study of the Classical Arabic Tense System // Brill. 2016. – P. 20-33.

grammatik kategoriya elementlari emas periferik vositalar bo‘la boshlaydi. Temporallik maydoni o‘z tarkibiga zamon va aspekt ma‘nolarini qamraydi. Biroq aspekt va zamoni bir-biriga teng ikki yadro deb bo‘lmaydi. Ular bir-birini to‘ldiruvchi, biri ikkinchisini taqazo qiladigan ma‘no turlari bo‘lib, semantik iyerarxiyada aspekt zamonga tobe, unga bo‘ysunadigan ma‘no guruhidir.²⁴ Umuman olganda ushbu funksional-semantik maydon ma‘nolarini uch turga ajratib tabaqlash to‘g‘ri bo‘ladi.



Maydon tarkibidagi elementlar ushbu ma‘nolarni muntazam ifodalasa, bu sema ularning lisoniy ko‘rsatkichiga aylanadi. Matn kontekstiga ko‘ra biror element bu ma‘nolardan birini vaqtincha ifodalasa, unda sema matn diskursiga bog‘liq vaqtinchalik pragmatik xususiyati bo‘ladi. Zamon barcha fe‘llarga xos umumiy ma‘no belgisi, asosiy tarz ma‘nolari ham ingliz tilidagi deyarli barcha fe‘llarni qamrab oladi. Biroq qo‘shimcha tarz ma‘nolarini ifodalaydigan birliklar barcha fe‘llar bilan birikmaydi yoki barcha fe‘llarning ma‘no tarkibida kuzatilmaydi.²⁵ Bu ma‘nolarning ba‘zilari o‘zbek tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan tarz maydoni ma‘nolarini takrorlaydi. Boshqalari temporallik maydoni elementlarining semik tarkibi tahlilidan umumlashtirildi. Kichik tarz ma‘nolarini shu sanab o‘tilgan semalar bilan cheklash imkonsiz. Har bir fe‘l o‘ziga xos aspektual ma‘noga ega bo‘lishi va bu ma‘no nutq kontekstida yanada boyib o‘zgarishi mumkin.

Ingliz tilida temporallik polisemiyasi, ya‘ni bir zamon shakli, aspektual elementning maydondagi boshqa bir ma‘noni ifodalashi continuous shaklida ham uchraydi. Lisoniy-funksional jihatdan hozirgi zamondagi tugallanmagan ish-harakatni anglatadigan *present continuous* kelajakda yuz berishi rejalashtirilgan ish-harakat ma‘nosida ham yoki muntazam takroriy ravishda uzoq vaqt mobaynida yuz bergan xatti-harakat ma‘nosida ham qo‘llanadi.

²⁴ Минор А. Функционально-семантическая категория темпоральности и ее текстоорганизующие потенции (на материале немецких научных текстов): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Москва, 1985. – С. 174.

²⁵ Шендельс Е. Многозначность и синонимия в грамматике (на материале глагольных форм современного немецкого языка). – Москва: Высшая школа, 1970. – С. 208.

Qolaversa, *to think* fe'lining davomiy zamon shaklida qo'llanishi uning ma'nosini o'ylamoqdan rejalashtirmoq semasiga siljitib, jumla ma'nosini ham kelasi zamonga yaqinlashtiradi: *I am thinking of moving home next term.*²⁶

Zamon shakllaridagi ma'no ko'chishiga payt ma'nosidagi ifodalar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, quyida vaqt yoki payt ma'nosiga ega elementlar davomiy shaklning ma'nosiga ta'sir o'tkazadi. Shu elementlar bilan semantik butunlik hosil qilgan davomiy zamon shakli tugallanmagan, jarayondagi xatti-harakat ma'nosini emas, odat tusiga kirgan, takroriy xatti-harakatni anglata boshlaydi: *Most of the time, I was working on optimizing expenditures of the coffee shops. – Asosan (asosiy vaqtimda) qahva do'konlari harajatini qisqartirish ustida ishladim.* Tugallangan zamonda ham shunday payt markerlari qo'llanishi shaklning aspektual ma'nosiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, *always, often, sometimes, usually* kabi takroriy payt markerlari tugallangan zamonning asosiy semasi to'liqlilik aspektini noto'liqlikka o'zgartirib yuboradi: *Stephen King had always written horror stories for young readers. – Stiven King doim yosh o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallangan qo'rqinchli hikoyalar yozgan.*

Umuman olganda, aspekt ma'nolari kutilmaganlik, jadallik, tugallanganlik va boshqa iboralar, birikmalar vositasida ham ifodalanadi. Ya'ni leksik qolip bir so'z doirasida cheklanmay kattaroq hajm kasb etib sintaktik birlikka aylanadi. Ularning zamon semasi o'zi birikkan fe'l zamoni ma'nosiga qarab o'zgarib ketadi, ma'no pragmatik vaziyat ta'sirida, matn diskursida siljiydi.

Uchinchi faslda **“O'zbek tilida zamon ma'nosining lisoniy-pragmatik xususiyatlari”** deb nomlanadi.

Tildagi barcha fe'llarga xos bo'lgan lisoniy imkoniyat zamon kategoriyasidir. Bu kategoriya barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham temporallik funksional-semantik maydoni yadrosini tashkil qiladi. Yadro elementlari ma'nosiga ko'ra uchga, ifoda shakliga ko'ra uchga bo'linadi. Ma'nosiga ko'ra kategoriya o'tgan, hozirgi va kelasi zamonga ajraladi. Biroq shaklan oddiy hozirgi va oddiy kelasi zamon asli bir qolipda umumlashadi. Hozirgi zamonning kelajakni ifodalashi lisoniy imkoniyat sifatida e'tirof etiladi. Nutqiy voqelanishda zamon kategoriyasi shaxs-son, ba'zi o'rinlarda mayl va nisbat bilan birikuvni xosil qiladi. O'zbek tilida zamon kategoriyasining nutqiy voqelanishi sanab o'tilgan kategoriyalar bilan birga amalga oshadi.

Nutqiy voqelanish, anglashilganidek, asosiy zamon kategoriyasidan shaxs-son kategoriyasi bilan birikuvni talab qiladi. Ingliz tilida ba'zi zamon shakllari, xususan, oddiy kelasi, oddiy o'tgan zamon shakllariga hech qanday shaxs-son kategoriyasi qo'shilishi talab etilmaydi.²⁷

Temporallik maydoni zamon bilan birga aspekt ma'nosini ham anglatishi haqida ta'kidlandi. Aspekt ma'no turlari juda ko'p, biroq bu ma'nolarning qamrovi tor doirali. Periferik elementlardan burun morfologik sathda bu ko'p sonli

²⁶ Князев Ю. Настоящее время: семантика и прагматика // Логический анализ языка. Язык и время / отв. ред. Н. Д. Арутюнова, Т. Е. Янко. – Москва, Индрик, 1997. – С. 131-138.

²⁷ Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – P. 256. Sayfullayeva R., Mengliye B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006. – B. 176.

ma'nolarni fe'l+ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l qurilmasi ifodalaydi.²⁸ Bu ma'nolar muayyan qurilma semasiga mutlaq bog'lab qo'yilmagan. Shuning uchun aspektni matn kontekstiga qarab o'zgarib turadigan pragmatik sema ekanligini asoslash lozim.

Morfologik birikmalar tarkibdagi elementlarning pragmatik xoslanganligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilidagi fe'l va predlog birikmasi o'zining semantik jihati bilan alohida leksema deb e'tirof etilishi ham mumkin. O'zbek tilidagi birikuv shakli esa bunday mustaqil ma'no hosil qila olmaydi. Asosiy lug'aviy ma'no fe'l zimmasida bo'lib, ko'makchilar o'sha ma'noga qo'shimcha aspektual semani yuklaydi. Ko'makchilarning tarz ma'nosi ham asosiy fe'lning semasiga qarab o'zgaraveradi. Bundan kelib chiqadiki, fe'l+ravishdosh shakli+ko'makchi fe'lning aspektual ma'nosi birikuv va nutqiy vaziyatga bog'liq bo'lgan pragmatik hosiladir. Masalan: *Qo'qqisdan qarshimga katta it otilib chiqdi (kutilmaganlik aspekti); Nozima o'tgan yilgi barcha test to'plamlarini ishlab chiqdi (tugallanganlik aspekti) kabi.*

Yuqoridagi morfologik qurilmalar zamon ma'nosining o'zini ifodalay olmaydi, ularning ifoda imkoniyatlari xususiy aspektual ma'nolar doirasida cheklanadi. Maydon periferiyasidagi elementlar, ya'ni leksemalar esa zamon, aspekt semalarini tashiydi. Biroq leksemalarning bu semik xususiyati kontekst bilan shartlangan, unga ko'ra o'zgaradi. Lekin bu semalar mutlaq lug'aviy ma'noga bog'lanmagan. Nutqiy vaziyatga qarab aspektual ma'nolar o'zgarishi mumkin. Biror ma'noning voqelanishi doimiy ravishda muqarrar bo'lmasa, bu uning pragmatik ekanligidan dalolat beradi. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan fe'llar turli nutqiy vaziyatda farqli aspektual semalarni kasb etadi: *Darvozadan chiqishim bilan qo'shniga to'qnashdim (kutilmaganlik aspekti) – Sen bilan to'qnashishga payt poylab yurgandim o'zi (uzoq kutilganlik aspekti) kabi.* Ko'rinib turganidek leksik ma'nolar fe'llarning ayrim semik-valentlilik aloqalaridan kelib chiqqan holda shartli lisoniy-semantik imkoniyat deb qayd etilgan. Amalda esa har bir leksema nutqda voqelangach butkul boshqa pragmatik semani yuzaga chiqaradi. Bunda e'tiborli jihati shundaki, sanab o'tilgan har bir fe'l nutq kontekstidan kelib chiqqan holda, albatta, muayyan aspektual ma'noni ifodalaydi, tarz ma'nosiga xoslanish uning pragmatik tabiatida ajralmas xususiyat bo'lib qoladi. Aspektual semalar boshqa tur leksik birliklarda nisbatan o'zgarmas xarakterga ega. Payt ravishlari, takroriylikni ifodalovchi ravishlar harakat-holatning takroriylikni, uzluksizligi, tugallanganligi, noto'liqliligi semalarini anglata oladi va ushbu ifodaviy sema sintaktik birikuv ta'sirida o'z kuchini yo'qotmay qoladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida zamon funksional-semantik maydon elementlarining o'zaro tarjima masalasi**" deb nomlangan bo'lib, mazkur bob uch fasldan iborat. Birinchi fasl "**Turli tizimli tillarda zamon funksional-semantik maydon elementlarining tarjimasidagi muammolari**" deb nom olgan.

Matn uslubi va uning kommunikativ xususiyatlariga qarab tarjima jarayonidagi yondashuvlar farqlanadi. Ilmiy-texnik tarjima so'zma-so'z yondashuvni talab etadi,

²⁸ Hojiyev A. O'zbek tilida ko'makchi fe'llar. – Toshkent, Fan, 1966 – B. 233.

tarjimonning texnik atamalar, ilmiy terminlarni bilishi lozim. Badiiy tarjimada esa tarjimonning vazifasi biroz murakkablashadi. Bunda maqsad faqat aniq tarjima emas, mutaxassis zimmasiga yozuvchi uslubi, asar ruhiyati va kayfiyatini saqlab qolish vazifasi ham yuklanadi.²⁹ Og‘zaki tarjima, publitsistik tarjimalarda ham vazifalar va talablar farqlanib boraveradi. Har qanday holatda ham badiiy tarjimaning boshqa turlarga nisbatan murakkab, tamoyillari va talab chegaralari aniq belgilanmagan badiiy-lingvistik faoliyat deb ta’kidlash joiz.

Ingliz va o‘zbek tillarining o‘zaro tarjimasida struktur keskin farqlanishni ham inobatga olish lozim. Flektiv va agglyutinativ tillar, sintaktik qurilishi boshqa-boshqa bo‘lgan tillarda to‘liq lingvistik usulda ishlash imkonsiz. Biroq zamon ma’nolari har ikki tilda ham aynan, ularning ifodalanish shakllari farqli xolos. Shunday ekan yuqoridagi vaziyatda zamon shaklini no‘tog‘ri tanlash hech qanday lingvistik shart bilan asoslanmagan, tarjimonning e’tiborsizligi sabab yuzaga keladigan texnik xatolik. Umumlashtirib aytganda, zamonning kategorial ifodasi faqat morfologik sath vositalari zimmasiga yuklansa ingliz va o‘zbek tilidagi matnlar o‘zaro tarjimasida oddiy o‘tgan zamon va uzoq o‘tgan zamonlarini tartiblash muammosi kelib chiqadi. Shuningdek davomiy zamonda tuslanmaydigan ba’zi fe’llarning shu zamonda qo‘llanishi orqali yuzaga kelgan lingvopragmatik ma’no tarjimon e’tiboridan chetda qoladi.

Struktur xarakterga ega bo‘lgan yana bir muammo sintaktik qurilmalar tarjimasiga oiddir. Shart mayli konstruksiyalari ingliz tilida turli funksional semalarni ifodalaydi. Ularning tarjimasida shu funksional semalar chalkashishi mumkin yoki tarjimon ingliz tili bilan aynan bir xil strukturali gap tuzishga intilib o‘zbekcha matnda uslubiy g‘alizlikni yuzaga chiqaradi. Shart mayli konstruksiyasi zamon kategoriyasi bilan uyg‘unlikda xatti-harakatning o‘tmish yoki kelajak traektoriyasida turishini ifodalaydi. Demak, uning tarjimasidagi xatolarni ham ko‘p uchraydigan, struktur xarakterga ega muammo sifatida baholay olamiz.

Leksik elementlarning tarz-zamon semasi tarjimasida, shuningdek, ushbu ma’no tushib qolishi, asossiz qo‘shilishi yoki noto‘g‘ri o‘g‘irilishi ham muammolardan biridir. Ma’lumki, o‘zbek badiiy adabiyotida tasvirga katta ahamiyat qaratiladi. Bu qahramonning ko‘rinishini Balzak usulida batafsil ta’riflashdan tortib har bir xati-harakati, holatini tasvirlashda ham namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida yaratilgan badiiy asarlarda faqat syujet uchun ahamiyatli bo‘lgan elementlar batafsil tasvirlanadi, qolgan jihatlarga o‘quvchini syujetdan chalg‘itmaslik maqsadida urg‘u berilmaydi.³⁰ Shuning uchun ingliz tilidagi matn tarjimasida o‘zbek tilida quruq va jonsizdek taasurot uyg‘otadi. Tarjimon shunday uslubiy quruqlikni bartaraf etish maqsadida tarz-zamon ifodachilarini boshqa tasviriy elementlar qatori matn tarkibiga kiritadi. Tasvir elementlarini qo‘shishda me’yor bilmaslik, bo‘yoqdorligi juda baland birliklarni qo‘llash natijasida, yozuvchining individual uslubi va ingliz badiiy adabiyotiga xos bo‘lgan umumiy tasvir uslubi o‘zgarib ketadi.

²⁹ Бархударов Л. Язык и перевод. – Москва, 1975; Комиссаров В. Теория перевода (лингвистические аспекты) – Москва, 1990; Попович А. Проблемы художественного перевода. – Москва, 1980.

³⁰ Виноградов В. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – Москва, 1978. – С. 48.

Ikkinchi fasl “**Zamon funksional-semantik maydon elementlarining ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimasini**” deb nomlangan.

Zamon funksional-maydoni tarjimasidagi muammolar shakl va semantik mohiyatni qamrab oladi. Shakliy mushkulotlar paradigma yadrosidagi elementlar zamon kategoriyasining tarjimasida ko‘zga tashlanadi. Noto‘g‘ri tarjima esa, o‘z navbatida, asliyat va tarjima matni orasida zamonning funksional semasi e‘tiborga olinmaganini anglatadi. Xususan, ba‘zi o‘rinlarda inglizcha zamon shakllari polisemik xususiyatlarini namoyon etib, bir zamon shakli nutq kontekstida butunlay boshqa zamoni ifodalaydi. Matnning kommunikativ xususiyatiga putur yetkazmaslik maqsadida oddiy hozirgi zamon matn kontekstida kelasi zamonda rejalashtirilgan ish-harakat yoki ma‘nosiga alohida urg‘u berib tasdiqlangan ish-harakatni anglatishi mumkinligini yodda saqlamoq lozim. Davomiy zamon ham ayni so‘zlovchi nutq so‘zlayotgan vaqtda amalga oshayotgan ish-harakat yoki muntazam ravishda takrorlanib turadigan xatti-harakatni ifodalashga xizmat qiladi. Buni bevosita fe‘lning lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqib belgilaymiz. Ya‘ni uzoq muddat davom etadigan, jarayonlilik semasini o‘zida mujassam etgan fe‘llar o‘z o‘zidan ayni so‘zlashuv onida sodir bo‘ladigan davomiy zamoni emas, uzoq muddat mobaynida sodir bo‘luvchi uzluksiz yoki takroriy xatti-harakatni anglatadi.³¹ Masalan, zamonaviy Amerika ingliz tilisi korpusidagi misollar tahlilidan kelib chiqib, quyidagi fe‘llar atash ma‘nosi tarkibida jarayon muntazamligi semasini aniqladik.³² Ular tarjimasida shunchaki o‘zbek tilidagi davomiy zamon morfologik qo‘shimchalaridan emas ravishdosh shakli + ko‘makchi fe‘l qurilmasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Murakkab uzun qurilmalar ma‘nosini sodda jumlar bilan berish davr talabiga aylandi. Bu asar tilining ravon bo‘lishi va oson tushinilishini ta‘minlaydi. Shu boisdan sodda yoyiq, murakkab qo‘shma gaplarni kichikroq tarjima birligiga ajratib bo‘lib-bo‘lib tarjima qilish ma‘qul yechimdir.

Ma‘lumki, so‘z predmet yoki holat tushunchasini o‘zining shakliy va semantik aspektlari hamohangligida ifodalaydi. So‘z ma‘nosi deganda uning predmet-mantiqiy ma‘nosi, atash ma‘nosi va hissiy ma‘nosi nazarda tutiladi. Predmet-mantiqiy ma‘noni asosiy, daliliy yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri ma‘no deyish ham mumkin – u so‘z vositasida predmet yoki holat haqidagi asosiy tushunchani ifodalaydi. So‘zning atash ma‘nosi birlikdagi predmet, shaxs yoki geografik hudud nomini o‘z ichiga oladi. Emotsional ma‘no esa predmetlar yoki holatlar sabab yuzaga keluvchi his-tuyg‘ularni anglatadi.³³ Realiyalar sirasida fe‘l va unga yondosh ma‘nolar zamon yoki tarzni uchratmaymiz. Biroq ma‘no tarkibida semik qavatlanish, lug‘aviy ko‘p ma‘nolilik yoki kontekstual polisemiya bo‘lgan leksemalar tarjimasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Ingliz fe‘llarining polisemiyasi xususida esa alohida to‘xtalish lozim. Semantik-statistik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra “ingliz tilidagi ikki yuzta eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘p ma‘noli fe‘llar orasida faqat 37 ta leksema tarkibi kam semalardan tashkil topgan: *seem, begin, include, happen, suggest,*

³¹ Craft W. Verbs aspect and causal structure. – Oxford: Oxford Universty Press, 2012. – P. 33. Vendler Z. Verbs and times; The Philosophical Review. – Duke: Duke University Press, – 1957. – P. 146.

³² <https://www.english-corpora.org/coca/>

³³ <http://linguisticus.com/ru/TranslationTheory/OpenFolder/REALII>

expect, require, add, describe, cause, learn, explain, increase, seek, achieve, choose, occur, discuss, argue, enjoy, ensure, compare, obtain, announce, indicate, wonder, avoid, suppose, listen, exist, encourage, replace, intend, prevent, reveal, depend, complete".³⁴ Shundan tashqari barcha faol qo'llanadigan fe'llar leksik yoki leksik-grammatik polisemiyaga ega. Lug'aviy ma'nodagi polisemiya holatini leksik ko'p ma'nolilik deb atash mumkin va bu fenomenning tizmiy tartibini aniqlash mushkul. Ya'ni bir so'zning turli ma'nolari qanday paydo bo'lgani, nega ma'no qavatlanishi yuz berganini aniqlash mexanizmi mavjud emas. Biroq leksemalarning leksik-grammatik polisemiyasi bundan mustasno. "Leksik-grammatik variantlilik holatida bir leksik semalar to'plamiga ikki yoki undan ko'p leksik grammatik ma'no turi ergashadi. Bu leksikogrammatik (kategorial) semalar o'zaro qo'shimcha distributsiya munosabatiga kirishadi va kontekstga bog'liq holda voqelanadi. Leksik grammatik polisemiyada esa har bir leksik semaga alohida leksik-grammatik sema mos keladi".³⁵ Demak, ingliz tilidagi har bir fe'lning leksik ma'nosiga yondosh, uni to'ldiruvchi leksik-grammatik ma'no mavjud. Tarjimada shu semalardan zamon yoki tarz semasi e'tibordan chetda qolishi mumkin emas. Zero bu asardagi xatti harakatlarning kechish sur'ati tasvirini singdirmaslik va natijada asliyatdagi tasviriylik xususiyati tarjimada o'z aksini topmaydi.

Ushbu bobning uchinchi fasli "**Zamon funksional-semantik maydon elementlarining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi**" deb nomlanadi.

Zamon va tarz bir-biriga mazmunan va shaklan bog'liq kategoriyalardir. O'zbek tilshunosligida ikkalasi ham alohida morfologik kategoriyaga ajratilgan. Zamon ma'nolari sintetik shakllar vositasida ifodalansa, tarz murakkab qurilma ravishdosh shakli + ko'makchi fe'l birikuvidan anglashiladi. Bundan tashqari, leksemalar tarkibida ham barcha harakat va holatlar uchun umumiy bo'lgan kategorial zamon ma'nolari va har bir holat yoki harakatning individual nokategorial tarz ma'nosi ko'zga tashlanadi. Ularning ingliz tiliga tarjimasida aniqlik va adekvatlikni ta'minlash uchun turli sathlardagi ifodachilarning ma'no ko'lamidan kelib chiqish zarurati mavjud. Avvalambor, o'zbek tilida holat yoki harakat fe'li zamon tuslanishida cheklovga ega emas. Aqliy faoliyat fe'llari ham, hissiy holat fe'llari ham davomiy, oddiy yoki tugallangan zamon shakllarida qo'llana oladi. Ingliz tilida ayni shu ma'nodagi fe'llar davomiy zamonda qo'llanilmaydi. Shu bois tarjimada davomiy zamon o'rniga oddiy zamon shakllarini qo'llash o'rinlidir. Bunday tanlov transformatsion tarjima uslubi bo'lib, ikki tildagi zamon shakliy mutanosibligini ta'minlash uslubiy tafovut sababli imkonsiz bo'lib qoladi.

Asliyat matnining tarjimada o'zgarishini anglatuvchi transformatsiya metodi matni shaklan o'zgartirishni nazarda tutadi va bu shakliy o'zgarish mazmun yaxlitligi, mutanosibligini saqlab qolish uchun amalga oshiriladi. Tillar bir oilaga mansub, bir tizimga ega bo'lsa ham, hech qanday holatda tarjima matni asliyatning aynan aksiga aylanmaydi, zero tarjima jarayoni asliyatdan nusxa ko'chirish emas, uni boshqa tilda qayta yaratishdir. Shunday ekan transformatsiya bevosita tarjima deganidir. Undan foydalanishga asos sifatida uch sabab ajratiladi, ya'ni:

³⁴ <http://www.coventry.udea.uz>

³⁵ Гальперина И. Очерки по стилистике английского языка. – Москва, 1958. – С. 26.

- 1) tillardan birida muayyan kategoriyaning mavjud emasligi;
- 2) asliyat va tarjima birligi orasidagi ma'no nomutanosibligi;
- 3) asliyat va tarjima birligi orasidagi uslibiy nomutanosiblik.³⁶

Tarjimada grammatik transformatsiyaning o'zi uch turga bo'linishi ma'lum. Birinchidan, grammatik o'zgarishlar tarjimada aynan mutanosib bo'lgan shakl, turkum va kategoriyalarni qo'llamaslikni anglatadi. Ularning semasini boshqa bir leksik birlik zimmasiga yuklash yoki butunlay boshqa grammatik birlik bilan o'girish mumkin. Yuqorida davomiy zamonni oddiy zamon shaklida o'girish mana shunday grammatik o'zgarishga misol bo'la oladi. Ikkinchidan, gapdagi so'z tartibi o'zgarishi, birikmalar o'rni almashishi eng ommabop transformatsion uslublardan biridir. Turli tizimli tillarning o'zaro tarjimasida bunday transformatsiya oddiy hol. Uchinchidan, tarjimada murakkab gap bo'laklarining tartibi ham o'zgarishi mumkin. Bunday transformatsiya tarjima matnining kommunikativ xususiyatlarini mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.³⁷ Ba'zi o'rinlarda asliyat matnidagi zamon kategoriyasi boshqa bir fe'l zimmasiga yuklanadi va bu gapning strukturasi o'zgarganligi sabab ro'y beradi. Zero tarjimon matnni leksemalarga ajratmaydi, tarjimaning muvaffaqiyati matnni to'g'ri birliklarga bo'lishga asoslanadi. Matnning muloqot birliklariga ajratilishi natijasida tarjimada gap qismlari o'rni o'zgaradi. Bunda zamon kategoriyasiga ega fe'l butunlay boshqa sintaktik vazifani bajarishi yoki asliyatda zamon kategoriyasiga ega bo'lmagan fe'l tarjimada zamonda tuslanuvchi kesimga aylanadi.

Zamon va tarz bir-biriga mazmunan va shaklan bog'liq kategoriyalardir. O'zbek tilida tarz ma'nosi morfologik sathda ko'makchi fe'lli qurilma vositasida ifodalanadi, ingliz tiliga ayrim tarz ma'nolarini ham fe'l+predlog, ham zamon shakllari vositasida o'girish imkoni mavjud. Yuqoridagi fasllarda ta'kidlanganidek tarz ma'nolari juda ko'p, ma'no tizimi sifatida ochiq, cheklanmagan xarakterga ega. Ma'noni aniqlashda va tarjima muqobilini topishda kontekstual semadan kelib chiqish lozim. Masalan *turmoq* yoki *yurmoq* ko'makchi fe'li ishtirokidagi konstruksiya takroriylik, muntazamlik ma'nosini ifodalaydi. Uning tarjimasida ham shu ma'noni ifodalaydigan grammatik shakllardan foydalanish mumkin.

Ingliz tilidagi hozirgi va o'tgan tugallangan zamon shakllari *bo'lmoq*, *olmoq* fe'llari bilan yasalgan ko'makchi fe'lli qurilmaning tugallanganlik, to'liqlilik ma'nosini ifodalay oladi. Tarjimada shu qurilmalarga mos fe'l+predlog birikuvidan foydalanish yoki zamon bilan birga asliyat ma'nosiga mos fe'l+predlog birikmasini qo'llash mumkin.

XULOSA

1. Tilshunoslikda zamon mavzusida an'anaviy ingliz tilshunoslik maktabi ilgari surgan xulosalar lotin va fransuz lingvistikasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda isbotlandi. Roman german filologiyasi jumladan ingliz tilida bu

³⁶ Лисицына В., Арутюнов Э. Виды грамматических трансформаций при письменном переводе // Международный журнал экспериментального образования. – Москва, 2014. – № 10. – С. 165-167; Казакова Т. Художественный перевод. – Санкт-Петербург, Знание, 2002. – С. 113.

³⁷ Казакова Т. Практические основы перевода – Санкт-Петербург: Издательство, 2001. – С. 320. Бархударов Л. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва, 2008. – 240 с.

kategoriyani nomlovchi istilohlar ham bir xil. Umuman olganda har bir zamon shakli o'zining asosiy lug'aviy ma'nosiga qo'shimcha ravishda tarz yoki tus semasini ham tashiydi. Harakat yoki holatning qay bosqichda ekanligi, kechish sur'ati haqidagi ma'lumotlar umumlashib, aspektuallik kategoriyasini hosil qilishi isbotlandi.

2. An'anaviy o'zbek tilshunosligi esa o'z xulosalarini rus lingvistik maktablari andozalari asosida ko'rib chiqildi. Bunga ko'ra o'zbek tilidagi zamon kategoriyasi rus tilining *время глагола* morfologik kategoriyasiga teng ko'rildi. Ta'kidlash joizki, rus va o'zbek tillarining zamon kategoriyasi struktur simmetriyaga ega. Har ikki tilda ham affiksial o'zgarishlar o'tgan va hozirgi zamoni hosil qiladi. Shu asnoda o'zbek va ingliz an'anaviy tilshunosligi zamon ma'nosi tadqiqini ayni nomdagi morfologik kategoriya doirasida chegaralanganligi isbotlandi.

3. Keyinchalik tilni sistem-struktur o'rganish, tadqiqotlarga deskriptiv yondashuv yo'nalishi asoschilari barcha masalalar singari zamon kategoriyasini ham qayta ko'zdan kechira boshladi. Natijada zamon ma'nosi faqat ushbu morfologik kategoriya bilan cheklanmasligi ravshanlashdi. Ingliz tili morfologik sathining o'zida yana qator vositalar, masalan, mayl, nisbat va modal fe'llar bilvosita konnotativ semasi bilan zamonga ishora qila olishi isbotlandi.

4. Temporallik funksional-semantik maydoni semantikasiga ko'ra harakat yoki holatning nutq oniga nisbatan munosabati yadrosiga ega, uning funksional yadrosi fe'lning zamon kategoriyasidan iborat ekanligi ko'rib chiqildi. Modal fe'llar va boshqa fe'lga yondosh kategoriyalar temporallik ma'nosini qisman, bilvosita ifodalanganligi isbotlandi. Sintaktik sathda gap konstruksiyasi markaziy o'rin tutadi, so'z birikmalari esa xuddi leksemalar singari temporal ma'nosi mo'tadil bo'lmagan, morfologik unsurlarga bog'liq holda o'zgarishi sabab periferik doiraga kiritilishi aniqlandi.

5. Temporallik funksional-semantik maydoni elementlari birlamchi zamon ma'nolari va ikkinchi darajali aspektual semalariga ko'ra umumlashgan. Tilning tizimi, tarkibi qanday bo'lishidan qat'iy nazar birinchi darajali, yadroni tashkil etuvchi zamon ma'nolari maydon ichidagi barcha elementlarga tegishli, ularda o'z aksini topdi. Zamon ma'nolari turli tizimli tillarda asosan uchga o'tgan, kelasi va hozirgi turlarga tasniflanadi. Ma'no soniga ko'ra ekvivalentlik barcha tillarda mavjud. Biroq shakllar ma'nolar soniga doim ham mutanosib bo'lavermaydi. Xususan, ingliz va o'zbek tillarida fe'lning oddiy hozirgi va oddiy o'tgan zamon shakllari alohida analitik/sintetik-analitik shakl sifatida mavjud bo'ladi. Kelasi zamon shakli esa bu qolip doirasidan chetga chiqib, ingliz tilida modal fe'l va infinitiv birikmasi vositasida, o'zbek tilida esa oddiy hozirgi zamondagi funksional ma'no qavatlanishi orqali belgilanishi misollar asosida ko'rsatib o'tildi.

6. Ingliz va o'zbek tillarida ham davomiylik, davomiy tugallanganlik va tugallanganlik zamon va kichik tarz ma'nolari orasidagi o'rtaliq bo'g'im bo'ladi. O'zbek tilida bu ma'nolarni ifodalash uchun analitik-sintetik, analitik birliklar xizmat qiladi. Ingliz tilida ham turli zamon shakllari sintetik va analitik vositalar mushtarakligida belgilanadi. Sof zamon shakllaridagi kontekstual polisemiya, ya'ni qo'shimcha pragmatik ma'nolar asosan ingliz tilida kuzatiladi. O'zbek tilida esa zamon shakllarining tarkibiy qamrovi kengroq, lekin ma'no ko'lami tor doirada cheklanganligi isbotlandi.

7. Zamon, aspekt ma'nolarining nutqiy kontekstga bog'liq holda ifodalanishi maydonning markaziy va uzoq-yaqin periferik qismlarida kuzatiladi. Bu ma'nolar mutlaq emas, nutqiy vaziyat, sintaktik birikuv va boshqa nutq elementlari bilan o'zaro semantik aloqaga kirishishi bois tadqiq qilinayotgan semalar lisoniy-pragmatik xarakter kasb etadi. Ana shunday lisoniy pragmatik vositalar deb ingliz tilidagi maydon markazida verb+preposition birikuvini ta'kidlash joiz. Bunday birikuvda ma'no biror sintaktik, morfologik qonuniyatga bo'ysunmaydi. Birikmalar tarkibida fe'l ham, predlog ham yetakchi sema bo'lmaydi. Ular umumlashib mushtarak, mustaqil leksik ma'no kasb etadi va zamon, aspekt ma'nolari ham shu ma'nodan anglashiladi.

8. Ingliz tili va o'zbek tillarida zamon-aspekt ma'nolarining lisoniy pragmatik ifodalanishi asosan fe'l, ravish, murakkab (iborali) hol konstruksiyasi, buyruq-istak mayli, shart mayliga asoslangan sintaktik qurilma (shart ergash gap), sanalgan vositalar sirasida ikki va undan ortig'ining mushtarakligi kabi leksik va sintaktik qoliplarda kuzatildi.

9. Fe'l tarkibidagi aspektual sema uning morfologik birlik sifatidagi zamon kategorial ma'nosiga tobe bo'ladi. Nutqda, avvalambor, zamon ma'nosiga keyin qolgan elementlar ma'nosiga moslashtirib anglashiladi. Vaqt markerlari bo'lgan ravishlar esa nisbatan erkinroq, ularning pragmatik aspektual ma'nosi fe'l zamoniga tobe bo'lib o'zgarib ketavermaydi. Ular zamon ma'nosiga moslashishdan ko'ra zamon ma'nosini belgilab berish, aniqlashtirish kabi yetakchi vazifani bajarishga yo'naltirilgan lisoniy-pragmatik birliklar hisoblanadi. Shuningdek, jumlaning umumiy zamoniga bog'liq bo'lmagan holda shart mayli va buyruq istak mayli doimiy ravishda harakat-holatning bajarilmaganligi, kutilayotganligi va noto'liqliligi aspektual semalarini namoyon etadi.

10. Zamon shaklining tarjimasida asosiy muammolar shakliy nomutanosiblik, leksemaning zamon kategoriyasida tuslanish imkoniyatidagi cheklovlar va keng ko'lamli tarz ma'nolari sabab yuzaga kelishi misollar asosida ko'rsatildi. O'zbek tilida fe'llarning barchasi zamon kategoriyasida cheklovlarsiz tuslanadi. Ingliz tilida hissiy holat fe'llari va ayrim aqliy faoliyat fe'llari faqat oddiy zamonda tuslanadi. Tabiiyki, bu tafovut tarjima jarayonida struktur stilistik muammoni keltirib chiqaradi. Ingliz tilida zamon shakllari aniq tizimda tartiblangan. O'zbek tilida asosiy urg'u o'tgan, hozirgi va kelasi oddiy zamon shakllariga qaratilishi doir misollar keltirildi.

11. Ingliz va o'zbek tillarida zamon kategoriyasining tarjimasida grammatik transformatsiyalar hisobidan amalga oshishini inobatga olingan. Asliyat matnidagi davomiy zamonda qo'llanilgan hissiy holat va aqliy faoliyat fe'llari ingliz tilida oddiy zamon shakllarida tarjima qilinganligi ko'rsatilgan. Fe'llar yoki zamon kategoriyasi til realiyasi bo'la olmaydi. Shunga qaramay ma'no qavatlanishi, kontekstual polisemiya fe'llarda ham mavjud bo'lib ularning zamoni tarjimasida ayni o'sha kontekstual sema ham inobatga olingan.

12. Leksik transformatsiyalarning birinchi turda fe'l kontekstual variantdoshi vositasida tarjima qilinadi. Tarjima birligi lug'aviy ma'nodan ko'ra nutqiy voqelanishdagi semasiga mutanosib bo'ladi. Natijada, norasmiy nutq doirasiga mos ravishda bir fe'l o'rnini boshqa bir fe'l+predlog birikuvi egallaydi. Bu asosan

tarjimani o'quvchiga adaptatsiya qilish, bayon uslubini auditoriyaga moslashtirish natijasi o'laroq gavdalanadi. Ikkinchi turida esa tarjima matniga qo'shimcha leksema kiritishni anglatadi. Bunda mavjud zamon-tarz ma'nosini mustahkamlash, yanada aniqlashtirish uchun tarz va payt ravishlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

13. Tarjima jarayoni transformatsiyadan holi bo'lmaydi. Zero transformatsiya matndagi struktur g'alizlik va semantik nomutanosiblik kabi muammolarni bartaraf etadi. Tarz ma'nosi yaqqol bo'lmagan fe'llarga ravishlarni biriktirish, zamon shaklini modal konstruksiyalar yoki zamon siljishi bilan o'girish ham muvaffaqiyatli tarjimaga munosib hissa qo'shadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ШАЙЗАКОВ ГУЛОМ МУХТАРОВИЧ

**СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ
«ВРЕМЯ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание
и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/Fil 3919.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.adchti.uz), а также в информационно-ресурсном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шарипов Фазлиддин Галиевич
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдувалиев Махаммаджон Арабович
доктор филологических наук, профессор

Абдуллаев Бекзодбек Холдаралиевич
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.03/29.12.2022.Fil.156.01 при Андижанском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 170100, город Андижан, улица Бобуршох, дом 5. Тел.: (74) 223-42-76, факс: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного института иностранных языков (регистрационный номер ____). (Адрес: 170100, город Андижан, улица Бобуршох, дом 5. Тел.: (74) 223-42-76).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(Протокол реестра рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

Д.А.Рустамов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор филологических наук,
профессор

А.Дж.Атабоев

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор филологических наук
(DSc), доцент

М.И.Умарходжаев

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Мировая Лингвистика развивается в новых направлениях, столь же специфических, как и все отрасли науки, техники современности. Особенно бурное развитие глобального процесса глобализации в мире привело к увеличению потребности в изучении иностранных языков. Поэтому, наряду с научно-теоретическими областями языкознания, требуется проведение новых исследований в практических направлениях.

В мировой лингвистике одним из актуальных вопросов современного языкознания является сравнительное изучение языков, принадлежащих к разным семействам. Потому что вопрос о практическом изучении языка приобретает все большее значение для современной лингвистики, в частности, для дискурса. Когда язык изучается как целостная система, морфологический статус носителей в нем и синтаксическая функция в предложении не являются основными показателями. Семантический состав языковых единиц определяет их место и функцию в данной системе. По этой причине становится актуальным анализ семантических, прагматических и контекстуальных особенностей категории времени в языке.

В период независимости в стране разрабатываются и внедряются в практику основные принципы организации и развития системы образования, соответствующей узбекской национальной модели на современном уровне требований. Внимание к изучению иностранных языков стало одним из приоритетов государственной политики. То, что “основа прогресса нашей страны, безусловно, – наука и инновации”¹, требует расширения масштабов исследований в области лингвистики. Таким образом, для поднятия позиции узбекского языка до уровня наиболее развитых языков мира, повышения уровня качества переводных текстов с узбекского языка на иностранные языки необходимо провести сравнительное исследование значения времени в английском и узбекском языках, выявить функциональные и семантические, прагматические особенности этих полевых инструментов, устранить недостатки в их переводе, а также провести функционально-семантическое исследование “время” на узбекском и английском языках. площадь одним из актуальных вопросов остается сравнительное изучение алломорфных и изоморфных свойств элементов.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит при выполнении задач, определённых в указах Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года № УП-4797 “Об учреждении Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои”, от 21 октября 2019 года № УП-5850 “О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного”, от 2020 года № УП-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране”, в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 г. № ПП-2909 “О мерах

¹ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису – <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998> (Дата обращения: 02.10.2022).

по дальнейшему развитию системы высшего образования”, от 5 июня 2018 г. № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране комплексных реформах», от 4 октября 2019 года № ПП-4479 “О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан о государственном языке”, от 19 мая 2021 года № ПП -5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» и рядом других нормативных правовых актов, относящихся к данной области, в которых утверждены Положения о совершенствовании содержания преподаваемой математики в дошкольном образовании.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В современном узбекском языкознании категория времени изучается в рамках других категорий глаголов или морфологического уровня в целом². Более того, даже в обособленном виде функциональные и синтагматические особенности категории времени определены лишь частично.³ Однако определение, характеристика прагматических, семантических аспектов вопроса остается актуальной задачей для узбекского языкознания. В мировой лингвистике установлено, что категория времени выражается в синтетической или аналитической форме в соответствии со структурным характером языка.⁴ В английской лингвистике категория времени изучается параллельно с парадигмами аспектуальности и темпоральности. В работах, посвященных морфологии, мы наблюдаем выводы, лежащие в основе этого подхода⁵.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательской работы высшего учебного или научно-

² Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатхлараро муносабатлар: филол.фан.номз.дисс...автореф. сатхлараро муносабатлар: филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2002; Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол.фан.докт.дисс...автореф. –Тошкент, 1994; Неъматов Х. Фель, унинг форма ва категорияси// Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. 1-сон, – Б. 39-47. 2-сон, – Б. 42-50. Бахриддинова Б. Фель луғавий шакли тизими. Фельнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Самарқанд, 2002; Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. 2-жузв. – Андижон, 1994; Курбонова М., Сайфуллаева Р., Бокиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. – Тошкент, 2004; Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994.

³ Жуманиёзов Р. Ўзбек тилида фель замонлари // Совет мактаби, 1953 йил, 3-сон; Жўраева Ж. Келаси замон маъносининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1959 йил, 3-сон; Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категорияси мисолида): филол.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2007.

⁴ Бондарко А. Классификация грамматических категорий // Типология грамматических категорий. – Москва, 1975; Дешериев Т. Лингвистический аспект категории времени в его отношении к физическому и философскому аспектам // ВЯ. 1975. -№ 2.

⁵ Смирницкий А. Морфология английского языка. – Москва: Изд. лит. по иностр. яз., 1959; Kortmann В. 2005. English linguistics essentials. Berlin: Cornelsen; Abusch D. Sequence of Tense, Intensionality and Scope WCCFL 7. Stanford University, 1988

исследовательского учреждения, в котором выполняется диссертация. Диссертация выполнена в соответствии с планом научно-исследовательской работы Гулистанского государственного университета в рамках темы “Сравнительное исследование функционально-семантического поля “Время” в английском и узбекском языках”. Исследование связано с общей проблемой типологии различных системных языков.

Цель исследования состоит в том, чтобы дать типологическую характеристику глаголов настоящего времени, выражающих понятие “время” в английском и узбекском языках, дать их семантическое и контекстуальное описание, указывающее на постоянную норму употребления, выявить проблемы перевода.

Задачи исследования:

выявление системы и состава функционально-семантического поля времени в узбекском и английском языках, раскрытие смыслового масштаба единиц и взаимосвязей семантических систем;

классификация элементов функционально-семантического поля времени в узбекском и английском языках по доминанте значения;

определение Языково-прагматических особенностей средств выражения значения времени в узбекском и английском языках;

анализ переводов элементов функционально-семантического поля времени с английского на узбекский и с узбекского на английский, а также дача соответствующих рекомендаций по их совершенствованию;

изучить толкование лексем, содержащих семантику времени, в переводных словарях и дать соответствующие рекомендации по их совершенствованию путем выявления достижений и недостатков.

Объектом исследования являются элементы функционально-семантического поля настоящего времени в английском и узбекском языках.

Предметом исследования является семантический и типолого-структурный статус речевых глаголов в современном английском и узбекском языках, а также проблемы взаимоперевода.

